

O‘ZBEKISTON ELEKTRON PULGA O‘TISH SHAROITIDA ELEKTRON TO‘LOV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI BARTARAF ETISHDAN KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK

Abdiyev Mansur Musurmonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Xujamuradov Abror Ro‘zimurat o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada XXI-asr texnologiya asri ekanligini inobatga olgan holda ko‘p mamlakatlarda to‘lov tizimlari tobora elektronlashib borishi fonida naqd pulning ahamiyati kamayib borayotgani ko‘rish mumkin. Ushbu o‘zgarishlarni inobatga olgan holda zamonaviy iqtisodiyotda naqd pulning dolzarbligini kamaytirish orqali to‘lovlar shaffofligi, xarajatlarni kamaytirish va natijada mamlakatimiz iqtisodiyotida kutilayotgan ijobiy natijalar tahlil qilindi. Shuningdek, elektron pulni respublikamizda joriy qilish yuzasidan xorijiy tajribalar o‘rganilgan holda takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: pul, naqd pul, keshless to‘lovlar, naqdsiz to‘lovlar, elektron pul, elektron hamyon, banknota, mobil pul xizmatlari, iqtisodiyot, monitar siyosat, sand dollar, norasmiy iqtisodiyot.

Аннотация

Принимая во внимание, что XXI век является веком технологий, в статье рассматривается, как значение наличных денег снижается на фоне все большей электронизации платежных систем во многих странах. С учетом этих изменений был проведен анализ прозрачности платежей, снижения расходов за счет уменьшения актуальности наличных денег в современной экономике и, как следствие, ожидаемых положительных результатов в экономике нашей страны. Кроме того, на основе изучения зарубежного опыта были разработаны предложения по внедрению электронных денег в нашей республике.

Ключевые слова: деньги, наличные деньги, безналичные платежи, безналичные платежи, электронные деньги, электронный кошелек, банкнота, мобильные денежные услуги, экономика, монетарная политика, песочный доллар, неформальная экономика.

Abstract

The article discusses how the importance of cash is diminishing against the backdrop of increasingly electronic payment systems in many countries, considering that the 21st century is the age of technology. Taking these changes into account, the study analyzes the potential positive outcomes for our country's economy through

enhancing payment transparency and reducing costs by decreasing the relevance of cash in the modern economy. Additionally, proposals for implementing electronic money in our republic have been developed based on the examination of foreign experiences.

Keywords: money, cash, cashless payments, non-cash payments, electronic money, e-wallet, banknote, mobile money services, economy, monetary policy, sand dollar, informal economy.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Elektron to‘lov tizimi rivojlantirilmoqda va ushbu sohadagi normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilmoqda. Ko‘pchilik elektron pullar deganda birinchi o‘rinda faqat kriptovalyutalarni tasavvur qiladi. Aslida esa ular so‘m yoki boshqa davlat valyutasining ekvivalenti bo‘lib, uning aylanishi faqat elektron tizimda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-578-son Qonunida elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to‘lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari sifatida ta‘rif berilgan.¹

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-son Qonunida elektron tijorat sohasida to‘lovlar elektron pullardan foydalangan holda, elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag‘larini o‘tkazish orqali amalga oshirilishi belgilangan.²

Tovar va xizmatlar ayirboshlash hajmining ortishi jahon bozorida raqobatni kuchaytirar ekan, iqtisodiy o‘shish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Albatta, bu o‘zgarishlar yana bir bor jahon savdosi bosqichma-bosqich to‘liq elektron (naqdsiz) to‘lovlarga o‘tib borayotganini ko‘rsatadi va bu jarayon global darajada elektronlashib borayotgan dunyo talablariga mos keladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda elektron (naqdsiz) pulga o‘tish va naqd pullik to‘lovlardan bosqichma bosqich voz kechilishi natijasida nafaqat iqtisodiy sohada balki korrupsion sohalardagi holatlarni kamaytirish borasida kutilayotgan ijobiy samaralar, shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasi analiz, sintez, qiyoslash usullari qo‘llanilgan holda o‘rganildi. Bundan tashqari xorijiy va mahalliy ilmiy — nazariy manbalar tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi professor Margarita Bryunermeer raqamli pullar va markaziy bank raqamli valyuta (CBDC) pul aylanish jarayoni, to‘lov vositasi tanlovi va bank tizimidagi murakkab o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Elektron pullar markaziy

¹ <https://lex.uz/docs/4575786>

² <https://lex.uz/docs/6213382>

banklar uchun siyosat va nazariyani qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi degan fikrni bildirgan.¹

Xitoy iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi Shen Luo elektron pullarning kengayishi markaziy banklar va moliyaviy siyosatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin deb ta’kidlagan.²

Iqtisodchi professor Aleksandr Rodrigues raqamli pullarning ishga tushishi inflyatsiya darajasini pasaytirishga yordam beradi. Raqamli pullar va to‘lov tizimlari iqtisodiy barqarorlikka ta’sir qilish va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega degan fikrni bildirgan.³

Italiyalik iqtisodchi, Italiya Markaziy banki rahbari Fabio Panetta raqamli yevro — omma uchun xavfsiz, ishonchli va butun yevro-tahsilda qabul qilinadigan jamoat pulining elektron shakli; qo‘llanishda bank likvidligiga xavfni cheklash uchun shaxsiy hajm-limit va boshqa choralar zarurligi to‘g‘risida fikrlarni bildirgan.⁴

Fransuz iqtisodchisi “Banque de France”ning sobiq rahbar o‘rinbosari Jan-Per Lando tomonidan raqamli pulning moliyaviy barqarorlikka ta’siri murakkab; ijobiy jihatlari bilan birga banklararo vositachilikka ta’sir, pul-kredit siyosatining o‘tkazish kanali va maxfiylik-raqobat masalalariga e’tibor talab qilishi va ushbu holatlarga alohida e’tibor bilan yondashish lozimligi to‘g‘risidagi fikrlar bildirilgan.⁵

Yaponiya bosh vaziri bo‘lgan Sindzo Abe “Abenomics” iqtisodiy islohotlari orqali raqamli xizmatlar va fintex sohasini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish ekanligini ta’kidlagan.

Elektron pullarga kelsak, ilmiy adabiyotlarda ushbu atamaning talqini bo‘yicha turli xil yondashuvlar mavjud. U "raqamli valyuta," "pul qiymati," "elektron pul o‘tkazmasi" va boshqa ma’nolarni anglatishi mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, "elektron pul" tushunchasi nafaqat "virtual valyuta" tushunchasi bilan balki "naqd pulsiz mablag‘lar" atamasi bilan ham adashtirib yuboriladi. Elektron pullar qonuniy to‘lov vositasi sifatida tan olinadi va har bir mamlakat qonun chiqaruvchisi tomonidan aniq tartibga solinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda pul uch shaklda muomalada bo‘ladi. naqd, naqdsiz va elektron ko‘rinishda. Pulning to‘rtinchi shakli — raqamli pullar ham paydo bo‘ldi. Biroq, ayrim mutaxassislar raqamli pullar aylanmasining ba’zi xususiyatlari va milliy tartibga solish jihatlari tufayli ularni naqdsiz yoki naqd pullarning bir turi sifatida talqin qilmoqdalar.

Elektron pullar (e-money) - bank kompyuter tizimlarida saqlanadigan va fiat pullar bilan ta’minlangan valyutadir (hukumat tomonidan kafolatlangan va qonuniy to‘lov vositasi hisoblanadi). Misol uchun, elektron pullarni istalgan bankomatda karta yoki boshqa to‘lov vositasidan yechib olish mumkin. Elektron pullar naqd pulsiz to‘lovlardan farq qiladi.

¹ <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91dfff9e7c.en.pdf?utm>

² <https://www.mdpi.com/2227-7390/9/20/2614?utm>

³ <https://www.journaleconomics.org/index.php/AJEFM>

⁴ https://www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012_1~1d14637163.en.html?utm

⁵ https://www.bde.es/f/webbde/Secciones/Publicaciones/InformesBoletinesRevistas/InformesEstabilidadFinancera/21/1_Currencies_FSR41.pdf?utm

Naqdsiz pullar — bank hisobvaraqlari o‘rtasida mablag‘larni o‘tkazish uchun foydalaniladigan pul vositasidir.

Elektron pullar internet orqali raqamli kompyuter tizimlarida saqlanadigan yoki ayirboshlanadigan naqd pullarning raqamli ekvivalenti hisoblanadi.

Elektron pullarni smart kartalar yordamida saqlash va o‘tkazish mumkin. Smart — kartalarda pullar “pul fayllari” ko‘rinishidagi yozuvlar sifatida saqlanadi. Ular sim-kartadagi chip xotirasida joylashadi, bunday kartalarda pulni shifrlash imkoniyati mavjud.

Elektron pullarni joylashtirishning ikkinchi turi — tarmoqli usul bo‘lib, u ko‘pchilik tijorat xizmatlari (masalan, Web Money elektron hamyoni, Yandeks pullar, QIWI, EasyPay va boshqalar) foydalanayotgan dastur yoki tarmoq resurslarida amalga oshiriladi. Internet — hamyonlar yordamida foydalanuvchilar haqiqiy pullarni elektron pullarga va aksincha almashtirish, shuningdek internet tarmog‘ida raqamli pullarni ayirboshlash imkoniyatiga ega. Ko‘p hollarda elektron pullar aniq bir bank hisobiga bog‘lanmagan bo‘ladi.

Elektron pullar frilanserlar (*mustaqil tarzda ishlovchilar*) va masofadan ishlovchilar tomonidan keng qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha buyurtmachilardan elektron pul shaklida to‘lov olib, keyin uni ish uchun kerakli xizmatlarga obuna bo‘lish, internet-do‘konlardan xarid qilish yoki boshqa xizmatlar uchun sarflaydilar. Korxonalar o‘z veb-saytlari orqali elektron pullarni qabul qilishi mumkin, bu esa ushbu to‘lov usulini afzal ko‘radigan mijozlar hisobiga auditoriyani kengaytiradi. Bundan tashqari, elektron pullar pudratchilar bilan hisob-kitob qilish, naqd pulsiz yoki naqd pulga ayirboshlash uchun qulay vosita hisoblanadi. Odatda bank o‘tkazmalariga qaraganda kamroq komissiya olinadi. Iste‘molchilar ba‘zan elektron pul bilan to‘laganda chegirmalarga ega bo‘ladilar, chunki bunday format sotuvchilar uchun ekvayring xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Elektron hamyon ochish uchun ofisga borish yoki ma‘lumotlarni uzoq vaqt tekshirish talab etilmaydi. Onlayn to‘lovlarning qulayligi shundaki, past komissiyalar va tezkor tranzaksiyalar elektron pullarni internetda to‘lovning foydali usuliga aylantiradi. Xuddi shunday elektron hamyon egalariga boshqa mamlakatlardagi foydalanuvchilarga osongina pul jo‘natish imkoniyati berilgan.

Elektron pullarning muomalasi davlat markaziy banklari tomonidan belgilangan yoki ular bilan kelishilgan qoidalar asosida, shuningdek nodavlat to‘lov tizimlarining o‘z qoidalari bo‘yicha ham amalga oshirilishi mumkin.


Elektron pullar bilan bog‘liq muhim masalalardan biri mamlakatda elektron pullar emissiyasini amalga oshirish huquqiga ega tashkilotlar ro‘yxatini aniqlashdir. (*ma‘lumot uchun: Xitoyda Xitoy Xalq banki, Shvetsiyada va Bagamada Markaziy bank emissiya qiluvchi hisoblanadi*)

Hozirda mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kirishini inobatga oladigan bo‘lsak, dunyo miqyosida bo‘layotgan iqtisodiy, ijtimoiy o‘zgarishlardan kelib chiqqan holda barcha tizimlardagi kabi monetar siyosatni ham yangi bosqichga olib chiqishning ayni vaqti kelganligini ko‘rsatib bermoqda.

So‘ngi yillarda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan monetar siyosat, iqtisodiyotning har bir sohasiga to‘g‘ridan — to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o‘rni va ta‘sirini baholashda uning amalga oshirayotgan pul-kredit siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu siyosat orqali Markaziy bank mamlakatdagi pul aylanmasini tartibga soladi, iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlaydi va inflyatsiya darajasini nazorat qiladi.


Shuningdek, ushbu siyosat doirasida aholi va xo‘jalik subyektlarining naqd pulga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham amalga oshiriladi. Ya‘ni Markaziy bank banklar orqali pul mablag‘larining yetarli miqdorda mavjudligini ta‘minlaydi, pul aylanmasidagi uzluksizlikni saqlaydi va iqtisodiyot subyektlari uchun to‘lov qobiliyatini ta‘minlab beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda naqd pullarni asosiy to‘lov vositasidan biri deb aytishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2023-2024-yillarda bank kartalariga tushgan mablag‘larning naqdlashtirib olinishi hajmi¹

Yuqoridagi diagrammada bank kartalaridagi pul mablag‘lari harakatini ko‘radigan bo‘lsak 2023-yilda banklar tomonidan ochilgan kartalarga jami 789,5 trln.so‘m pul mablag‘lari tushgan bo‘lsa, ushbu pul mablag‘larining 189,2 trln.so‘mi yoki 24,0% naqd pul ko‘rinishida yechilgan, 2024-yilda esa bank kartalariga tushgan pul mablag‘lari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 244,7 trln.so‘mga oshib jami 1 034,2 trln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu pul mablag‘larini naqdlashtirish hajmi 225,9 trln.so‘mni tashkil qilib 21,8 foizni tashkil etgan. Plastik kartalardagi pul mablag‘larini naqdlashtirish 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 36,7 trln.so‘mga yoki 19,4 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin (2-rasm).

¹ Markaziy bank ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



2-rasm. Bank kassalariga kirim qilingan naqd puldagi tushumlar to'g'risida¹

Bundan tashqari yuqoridagi rasmda Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki 2024-yilga kelib banklar orqali naqd pul aylanmasi 1 010 trln.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshgan.

2024-yilda muomaladagi naqd pullarning YAIMdagi ulushi 3,7 foizni tashkil qilayotgan bo'lsa, jami pul massasidagi ulushi 19,2 foizga teng bo'lmoqda va muomaladagi naqd pullarning 0,3 foizi (yoki 831,2 mlrd.so'm) tanga pullar hisobiga to'g'ri kelmoqda.

Respublikamizda 2024-yil davomida 152,1 mln.dona banknotalar muomalaga chiqarilib naqd pulning umumiy massasi 7,5 foizga oshgani yoki 2025-yil boshiga kelib muomaladagi banknotalar soni taxminan 2 028,0 mln donani tashkil qilayotganining o'zi ham naqd pul aylanmasi yildan yilga ko'payib, aholining qog'oz va tanga pullarga bo'lgan talabi yuqorilgicha qolayotganini ko'rsatib bermoqda.²

Iqtisodiyotda naqd pulga bo'lgan talab oshgani sari, bank tizimi hamda Markaziy bank aholi va biznes subyektlarining pul aylanmasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qo'shimcha banknotalarni muomalaga chiqarishga majbur bo'ladi. Bu jarayon bir qarashda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgandek ko'rinsada, uning bir qancha moliyaviy va makroiqtisodiy oqibatlari mavjud.

Birinchidan yangi pul belgilarini bosib chiqarish, saqlash va tarqatish davlat byudjeti uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Chunki banknotalar ishlab chiqarish jarayonida maxsus qog'oz, himoya elementlari, bosma texnologiyalari va logistika xarajatlari talab etiladi. Bu xarajatlar davlatning fiskal yukini oshiradi.

¹ Muallif ishlanmasi

² https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1acy7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf

Ikkinchidan, pul massasining ortishi inflyatsiya xavfini kuchaytiradi. Agar iqtisodiyotda tovar va xizmatlar hajmi mutanosib ravishda o'smasa, ortiqcha pul qo'yilmasi narx-navo oshishiga, ya'ni inflyatsiyaga olib keladi. Bunday holatda pulning xarid qobiliyati pasayadi va aholi real daromadlari kamayadi. Shu bois Markaziy bank pul emissiyasini amalga oshirishda pul — kredit siyosati vositalari orqali inflyatsiyani nazorat qilishga harakat qiladi.

Uchinchidan, naqd pul aylanmasi ulushining yuqori bo'lishi iqtisodiyotda "soya" (norasmiy) sektor faoliyatini kengaytiradi. Bu esa soliq tushumlarining qisqarishiga, davlat byudjeti barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda naqd pulga bo'lgan talab hozirgi vaqtda juda yuqori darajada saqlanmoqda. Bu o'z navbatida, iqtisodiyotdagi pul aylanishini, likvidlikni va aholi tomonidan banknotalarga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatadi. Davlat moliya va soliq siyosati asosida mamlakatda naqd pulga bo'lgan talabni qondirish uchun Markaziy bank tomonidan ishlab chiqarilgan har bir banknotning muomalaga kiritilishi uchun muayyan xarajatlar amalga oshiriladi.

Banknotalarni ishlab chiqarishdan to iste'molchi qo'lga yetib borishga qadar bo'lgan jarayondagi xarajatlar, faqatgina banknotalarning sifati va xavfsizlik xususiyatlarini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki moliyaviy tizimning barqarorligini saqlash, inflyatsiyani nazorat qilish va pul — kredit siyosati talablariga javob berish maqsadida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda bir birlik banknota(so'm)ni ishlab chiqarishdan to iste'molchi qo'lga yetib borishgacha bo'lgan xarajatlar Markaziy bank tomonidan ochiq holda e'lon qilinmagan.

Banknotani ishlab chiqarish va uni muomalaga kiritish jarayonida amalga oshiriladigan xarajatlar bir necha bosqichdan o'tadi.

Jumladan:

1. Tadqiqot va loyihalashtirish (Dizayn)
2. Xom — ashyolarni tayyorlash
3. Banknotani bosib chiqarish
4. Tarqatuvchi tizimga qo'shish (Logistika)
5. Saqlash, tarqatish va utilizatsiya xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotda naqd pul muomalasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda ko'p miqdordagi xarajatlarni ham keltirib chiqaradi. Naqd pullarni aholi qo'lida uzoq vaqt turib qolishi iqtisodiy aylanmaga salbiy ta'sir qilish bilan birga inflyatsiyani oshishiga, qo'lda saqlash xavfi (*naqd pulni qo'lda saqlash yoki uyda saqlash xavfli bo'lishi mumkin, ularni o'g'irlash yoki yo'qotish mumkin*), xufiyona iqtisodiyot va korrupsion omillar o'sishiga olib kelish ehtimoli juda yuqori hisoblanadi.

Umuman olganda, byudjet daromadlarining keskin tushishi iste'molchilar farovonligiga ijobiy ta'sirlaridan ko'ra salbiy oqibatlari ko'proq bo'lishi mumkin.¹

Bugungi kunda barcha sohalarda, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida, masofadan turib amalga oshiriladigan xizmatlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu xizmatlar

¹ <https://www.mup.cz/data/files/IFRS2022-sbornik.pdf>

insonlarning hayotlarini qulaylashtirish, vaqtni tejash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam bermoqda.

Shu sababdan ham bugungi kunda turli xildagi platformalar, elektron tizimlar, raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu albatta to'lov tizimini ham elektronlashtirishni taqozo etish bilan bir qatorda elektron pullar davri yanada yaqinroq kelganligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda ham ko'plab xizmat turlari uchun masofaviy elektron to'lovlar qabul qilish yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu elektron xizmat joriy qilinishi sohani shaffoflashuviga olib keldi va sohadagi korrupsion omilni to'liq bartaraf qildi deb ayta olamiz (*Ma'lumot uchun: Toshkent shahrida tajriba tariqasida o'tkazilgan jamoat transportlari uchun to'lovning to'liq elektronlashuvi sohadagi tushumlar miqdorini 35-40 foizga oshishini ta'minladi*).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2025-yil 14-fevraldagi 11-son qarori bilan respublikamizda elektron pullarni nazorat qilishga oid qonunchilikka ya'ni Adliya vazirligidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan 3266-son qarorga tegishli o'zgartirish kiritilib, bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravariga teng yoki undan oshgan summadagi yuborilayotgan ichki elektron pul o'tkazmalari bo'yicha jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar aniq ko'rsatilishi lozimligi to'g'risidagi band bilan to'ldirildi.

Shu kabi yashirin iqtisodiyot sohasidagi ko'plab qonun buzilishlarini oldini olish maqsadida ham to'lovlarni elektronlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, ko'plab sohalarda naqd puldagi to'lovlarni qabul qilib, xarid cheki bermaslik holatlari ham mavjud. Bu esa iqtisodiyotni to'liq shaffoflashuviga asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Elektron pullar naqd pullarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- — *o'g'irlash, qalbakilashtirish va nominal qiymatni o'zgartirishdan himoyalanganlik kriptografik vositalar orqali ta'minlanadi.*

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatib bermoqdaki, elektron pullar, elektron to'lov tizimlari va internet axborot bazasiga asoslangan moliyaviy xizmatlar turlari kengayib borishi to'lov tizimlarining tez rivojlanishi, shuningdek global iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar elektron pullarga o'tishning muhim va ayni vaqti ekanligidan dalolat bermoqda. Shunday ekan, elektron pullarga o'tish hozirda nafaqat jamiyat, balki davlat iqtisodiyoti uchun ham muhim qadam bo'ladi.

Yaponiyada "Elektron pul" infratuzilmasi 1990-yillar oxirida pilot loyihalar bilan boshlandi.

Kodli (QR) to'lovlar. JPQR — mamlakat miqyosida yagona QR standarti (2019); 2025-yilda JPQR Global doirasida xorij kodlari bilan o'zaro ishlaydigan to'lovlar Expo 2025-maydonida yo'lga qo'yildi.

Davlat islohotlarga ta'siri 2019–2020-yillarda "keshless ball-qaytarish" dasturi iste'molchilarni naqddan raqamli to'lovlarga o'tishini rag'batlantirdi. Kichik savdo shoxobchalari uchun terminal qo'yish xarajatlari subsidiya qilindi.

Bundan tashqari, Yaponiyaning elektron pullarga o'tishdan asosiy ko'zlangan maqsadi bu xarajatlarni qisqartirishdir. Ya'ni naqd pullarni ishlab chiqarishdan to'utilizatsiya qilingunga qadar ketadigan bir yillik xarajatlar miqdori 500-600 mln AQSH dollari deb baholangan.

AQSHda elektron to'lov tizimining rivoji bir necha bosqichdan iborat bo'lgan.

Birinchi bosqichda kredit kartalar (misol uchun, 1950-yilda "Diners Club" kartasi) va plastik debet kartalar paydo bo'ldi. 1973-yilda American Express magnit tasma texnologiyasini joriy etib, naqdsiz to'lovlar ommalashgan. 1970 — yillarning oxiriga kelib, debet kartalar keng tarqaldi va aholi chek o'rniga plastik kartalardan foydalanishni boshladi. Internetning keng ommaviylashuvi (1990-yillar) elektron bank xizmatlari va onlayn to'lovlarni joriy etdi. 1998-yilda PayPal ishga tushishi kredit kartalarni internetda qo'llashni osonlashtirdi.

Mobil aloqa tarqalishi (2010-yillar) Apple Pay, Google Pay va shunga o'xshash elektron hamyonlarni ommalashtirdi. Sohaning eng so'nggi bosqichi sifatida 2023-yilda FRS FedNow real vaqtda pul o'tkazish tizimi joriy etildi. U orqali banklar bir — birlariga to'lovlarni bir necha soniyada amalga oshira oladi. Bugungi kunda AQSHda naqdsiz to'lovlar miqdori oshib, 2000-yilga nisbatan (qo'llab berilgan ma'lumotlarga ko'ra) yozma cheklar ulushi 59%dan 5%ga tushgan, debet karta ulushi 11%dan 52%ga ko'tarilgan. Bu rivojlanish natijasida AQSH aholisining 92%ga yaqini hech bo'lmaganda bir marta elektron to'lov usuli bilan to'lov amalga oshirganligi ma'lum qilingan.¹

Elektron pulga o'tish jarayonida bir qator muammolar kuzatilgan.

Birinchi, aholi orasida "banksizlar" va internet aloqa yo'qligi natijasida elektron to'lovlardan foydalanmaydiganlar mavjud.

Ikkinchi, pandemiya davrida va undan keyin ba'zi xizmat ko'rsatuvchi do'kon va restoranlar soliq va xavfsizlik sabablarini olib, naqd pulni qabul qilmaslikka o'tdi.

Uchinchi, elektron to'lov tizimlari kiberxavflarga va texnik uzilishlar mavjudligi, jiddiy elektromagnit zarba yoki kiberhujum paytida elektron tarmoqlar ishlamay qolishi mumkin.

AQSHda naqd pul qog'oz banknotalar va metal tangalar har bir yangi banknota bir necha sentga to'g'ri keladi. 2024-yilda FRSning pul xizmatiga sarflagan umumiy xarajati 1,104 milliard dollarni tashkil etdi. Bu mablag'ning 361,9 million dollari banknotalarni bosishning o'zgaruvchan xarajatlariga, 665,5 million dollari esa infratuzilmani qo'llab-quvvatlash va boshqa doimiy xarajatlarga yo'naltirildi.²

Shuningdek, AQSHda ko'plab banklarda debet(kredit) kartalari orqali naqd chiqarish uchun kunlik limit joriy qilingan. Masalan, Bankrate saytida keltirilishicha, bunday limitlar odatda 300 AQSH dollardan 5,000 AQSH dollargacha bir kunlik pul chiqarishga mo'ljallangan bo'ladi.³

¹ <https://www.stlouisfed.org/publications/page-one-economics/2024/01/02/payment-systems-evolution-how-does-money-move-from-a-buyer-to-seller>

² https://www.federalreserve.gov/faqs/currency_12771.htm

³ <https://www.bankrate.com/banking/checking/atm-withdrawal-limits/>

Naqd puldan elektron to'lovlarga o'tish AQSHda bir qator ijobiy samaralar berdi. Xususan, to'lov tizimlari tezligi va samaradorligi, shuningdek iste'molchilar uchun to'lovlarning qulayligi oshib, nazorat qilish yengillashdi, qarz va byudjetlashtirish tartibi yaxshilandi.

Kanadada elektron to'lovlar tarixi Interac to'lov tarmog'i orqali boshlangan. 1994-yilda Interac tarmog'i debet kartalar bilan to'lov qilishni joriy etdi. Bu bank hisobidan to'g'ridan — to'g'ri xaridlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. 2003-yilda esa Interace-Transfer xizmati keng joriy qilindi. Bu bank hisoblari o'rtasida tez va xavfsiz pul yuborishga xizmat qiladi.

Keyinchalik internet savdolarini qo'llab — quvvatlash uchun 2007-yilda Interac Online to'lov tizimi ishlab chiqildi va 2010-yilda Interac Flash texnologiyasi (karta yoki telefonni terminalga yaqinlashtirib to'lov) joriy etildi. Ushbu bosqichlar elektron to'lov imkoniyatlarini kengaytirdi va eng ko'p ishlatilayotgan debet(kredit) kartalari kengligini ta'minladi. Asosiy raqamli to'lov vositalari debet va kredit kartalari tarmog'i hamda Interac xizmatlari hisoblanadi.¹

Naqd pul chiqarish va undan aylanmada foydalanish jarayonidagi xarajatlar mavjud. Kanadalik poliyester banknotlar har bir nominali bo'yicha soatlab iste'molchilar qo'lida aylanib, o'rtacha bir necha yil yashaydi. 5 AQSH dollari uchun ~8 yil, 10 AQSH dollari — 11 yil, 20 AQSH dollari— 16 yilcha. Bitta banknotani ishlab chiqarish jami 38 sent xarajat talab qiladi.

Shuningdek, bankomatlar orqali naqd yechish odatda har kuni eng ko'pi 300–1,000 AQSH dollari atrofida naqd yechish mumkin.

Elektron to'lov tizimlarini modernizatsiya qilish elektron iqtisodiyotga bir qator afzalliklar beradi. Raqamli to'lovlar ishtirokchilari uchun yangi raqobat va tanlovni yaratadi. Bu sarmoyachilar va ishlab chiquvchilarni zamonaviy yechimlarni sinovdan o'tkazishga undaydi. Jumladan, to'lov to'xtalishi kamayishi, foydalanuvchi ma'lumotlari asosida biznes qarashlarini yaxshilash va noqulayliklarni kamaytirish kabilardir.²

Singapurda elektron to'lovlarga o'tish bir necha bosqichda amalga oshirilgan.

Ilk bosqich – mamlakatdagi to'lov va bank infratuzilmasiga raqamli texnologiyalarni kiritish (1980-90-yillar).

Ikkinchi bosqich – kontaktsiz karta va internet to'lovlarini joriy etish (2000-yillar boshida CashCard, EZ-Link, elektron savdo).

Uchinchi bosqich – mobil hamyonlar va zamonaviy R2R tizimlarni (PayNov) ishga tushirish (2010-yillar).

Hozirda Singapurda SGQR (birlashtirilgan QR-kod) kabi yagona standartlar kiritilib, barcha to'lov ilovalari bir xil kod orqali to'lov qabul qilish imkoniyatini yaratishga o'tilmoqda.

Elektron pulga keng o'tish natijasida to'lov tizimida iqtisodiy va foydalanuvchilarni qoniqtirish jihatidan katta ilg'orlik kuzatilgan. Aholining 80 foizidan ortiqroq qismi elektron to'lovlar xizmatlaridan foydalanadi.

¹ <https://www.interac.ca/en/company/about/our-history/>

² <https://www.bankofcanada.ca/2021/02/payments-innovation-beyond-the-pandemic/>

Singapur banklari naqd pul yechish uchun kunlik chegara qo‘ygan. Misol uchun, DBS bankda har kuni umumiy S 15000 AQSH dollar miqdorida naqd yechish mumkinligi belgilangan.

Norvegiyada 2015-yildan mobil to‘lovlar paydo bo‘ldi. DNB banki tomonidan ishlab chiqilgan Vipps mobil ilovasi 2015-yilda taqdim etildi va shu yilning noyabrigacha 1 milliondan ortiq foydalanuvchiga erishdi. 2022-yilda Vipps Daniya va Finlandiyaning MobilePay xizmatlari bilan birlashib, Vipps MobilePay kompaniyasi tuzildi. Bu kunga kelib Vipps Norvegiya aholisining 4,2 millionga yaqini (5,4 million aholi hisobida) faol foydalanuvchilarni ta‘minlaydi. Ushbu bosqichlar mobil ilovalar orqali pul o‘tkazmalarini osonlashtirib, naqd puldan voz kechishni tezlashtirdi.¹

Naqd puldan elektron pulga o‘tish salmoqli natijalar berdi. Masalan, 2023-yilda har bir norvegiyalik o‘rtacha 550-marta bank kartalari bilan to‘lov qilgani qayd etildi.

Ko‘rsatkichlardan ko‘rinib turibdiki, raqamli to‘lovlar natijasida naqd puldan foydalanish ancha kamaygan. 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra, omma orasida faqatgina 2% fuqaro oxirgi to‘lovini naqd pulda amalga oshirgani ma‘lum qilindi.

Bagama orollarida Markaziy banki tomonidan 2020-yilda Sand Dollar raqamli valyutasi (CBDC) joriy qilingan. U oddiy Bagama dollariga teng bo‘lib, telefondagi elektron hamyonlar orqali to‘lov qilish, pul yuborish va qabul qilish uchun ishlatiladi.

Uning asosiy maqsadi hududda moliyaviy xizmatlarni osonlashtirish, naqd pulga bog‘liqlikni kamaytirish va to‘lovlarni tez va arzon qilishdan iborat bo‘lgan. Tezkor to‘lov, xavfsizlik, naqd pulga ehtiyojsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish kabi afzalliklari mavjud.

Sand Dollar joriy qilinganiga qaramay, uning joriy va faol foydalanilishi avvaldan kutilgan darajaga yetmadi, Markaziy bank buning sababi sifatida foydalanuvchilardagi ishonch, ochiqlik va aniq afzalliklar yetishmasligini ko‘rsatmoqda. Shu kabi yana bir muammolardan biri bu aholining bir qismida raqamli qurilmalarga kirish yoki raqamli asllilik bo‘yicha malaka yetishmasligi mavjudligi hamda maxfiylik haqidagi xavotirlar ham sabab sifatida ko‘rsatilgan.

Bagama Markaziy banki tomonidan taqdim qilingan ma‘lumotlarga ko‘ra, naqd pul ishlab chiqarish uchun 23 sent, taqsimlash va tarqatish uchun 15 sent, utilizatsiya qilish 41 sent va jami 79 sent xarajat qilinayotganligi ma‘lum qilingan.

Elektron pul – Sand Dollar joriy etilishi mamlakatda to‘lovlarni zamonaviylashtirishga katta hissa qo‘shdi. Bu raqamli valyuta orqali aholi va biznes to‘lovlarni tez, xavfsiz va bankka bormasdan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Chekka hududlarda yashovchi fuqarolar ham mobil telefon orqali to‘lov qila oladi, bu esa moliyaviy xizmatlarga barcha uchun teng sharoit yaratdi.²

Yangi tizim banklar va fintex kompaniyalari o‘rtasida raqobatni kuchaytirib, turli mobil hamyonlar va raqamli to‘lov xizmatlarini rivojlantirishga turtki berdi. Shu bilan

¹ <https://www.oslomet.no/en/research/featured-research/norway-leading-digitalization-not-everyone-benefitting#:~:text=.cannot%20effectively%20use%20the%20pages.>

² <https://cointelegraph.com/learn/articles/sand-dollar-bahamas-digital-currency-a-beginners-guide?utm>

birga, naqd pulga bog‘liq muammolarni jumladan, pul tashish, xavfsizlik va vaqt yo‘qotish kabilar kamaytirgan.

Bir kunda eng ko‘pi 1 500 Bagama dollarigacha naqd pul yechib olish mumkin.

Yamaykada yirik banklar tomonidan mobil pul xizmatlari 2016-yillarda ishga tushirildi. Yamaykada 2013-yillardan boshlab elektron pullarga o‘tish boshlangan bo‘lsa, bu yo‘nalish 2018-2019-yillarga kelib takomillashtirildi.

Mastercard tomonidan o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra, Yamaykada kichik va o‘rta bizneslar (SME)ning 91 %dan ortig‘i raqamli to‘lovni qabul qilinganligini ko‘rsatgan.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatdagi elektron pul massasi 2022-yilda 3 644,64 mlrd J\$ (23,3 mlrd AQSH dollari), 2023-yilda 4 322,48 mlrd J\$ (27,7 mlrd AQSH dollari) va 2024-yilga kelib taxminiy elektron pul massasi 5 617,9 mlrd J\$ (35,9 AQSH dollari) ni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 54 %ga o‘sgan. Ma‘lumot uchun mos ravishda mamlakatda naqd pul massasi 2022-yilda 238,8 mlrd J\$ (1,56 mlrd AQSH dollari), 2023-yilda 279,6 mlrd J\$ (1,81 mlrd AQSH dollari), 2024-yilda 286,1 mlrd J\$ (1,83 mlrd AQSH dollari)ga teng bo‘lgan.

Mamlakatda 2022-yilda YAIM 17,10 mlrd AQSH dollari, 2023-yilda 19,42 mlrd AQSH dollari va 2024-yilda 19,93 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan.

Nigeriyada ham elektron pullarga o‘tishni joriy qilish 2015-yillardan boshlangan bo‘lib, 2021-yillarga kelib bu tizim yana rivojlana boshladi.

Elektron to‘lovlar va instant payment tizimlari orqali tranzaksiya hajmi tez suratlar bilan o‘sib bormoqda. Mamlakatda bunday tranzaksiyalar 2022-yilda 516,1 mlrd AQSHdollarini va 2023-yilda 800,0 mlrd AQSHdollarini tashkil qilgan.

Mamlakatda YAIM 2021-yilda 440,8 mlrd AQSH dollari, 2022-yilda 477,4 mlrd AQSH dollari, 2023-yilda 363,8 mlrd AQSH dollari va 2024-yilda 266,0 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan. *(Ma‘lumot uchun: Nigeriya pul birligi nayraning keskin qadrsizlanishi sababli YAIM miqdori tushgan 2023-yilda ₦ 750/USD bo‘lsa, 2024-yilda ≈ ₦ 1 400–1 600/USD darajasiga tushdi).*¹

Shuni ham ta‘kidlab o‘tish joizki, elektron pullar muomalasidagi kamdan kam uchraydigan muammolaridan biri bu mamlakat yoki mintaqa miqyosida elektr energiyasi, aloqa yoki internet tarmog‘ining uzilishi bo‘lishi mumkin.

Bunga ayrim mamlakatlar quyidagicha tajriba mavjud. Xususan:

AQSHda Moliya xizmatlari sektori “critical infrastructure” sifatida qabul qilingan va u uchun alohida tadbirlar rejasi (Financial Services Sector-Specific Plan) ishlab chiqilgan. Bu reja moliya sektorini, jumladan to‘lov va kliring tizimlarini himoya qilish, barqarorligi va favqulodda holatlarda ishni davom etishi uchun risk-menejment, rezerv tadbirlar va hukumat xususiy sektor hamkorligini belgilaydi.

Xavfsizlik va infratuzilmani himoya qilish agentligi (CISA) hujjatlarida moliya sektori energiya, aloqa va IT infratuzilmasiga kuchli bog‘liq kritik tarmoq sifatida ko‘riladi va unda rezerv elektr ta‘minoti (generatorlar, UPS, mikro-grid) hamda ko‘p kanalli aloqani (telekom operatorlar diversifikatsiyasi, sputnik aloqasi va h.k.) qo‘llash nazarda tutilgan. Agarda ushbu tarmoqlarning barchasi butun mamlakat bo‘yicha to‘liq

¹ <https://www.worldometers.info/gdp/nigeria-gdp/?utm>.

o‘chib qolish riskini inobatga olgan taqdirda, naqd pul rezervini joriy qilinganligi nazarda tutilgan.¹

Hozirgi vaqtda ushbu jarayonlarni amaliyotda boshdan o‘tkazayotgan Ukrainada to‘lovlarni blokavt vaqtida ham alternativ energiya va rezerv aloqa manbalaridan foydalangan holda amalga oshirmoqda. Shuningdek, fuqarolar bankomatlardan naqd pul yechishi mumkin. Pensionerlarga naqd pullarni pochta tizimi orqali yetkazib berilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Shu kabi internet tarmog‘i yoki mobil ilovalar orqali to‘lovlar cheklangan vaqtda ham savdo shoxobchalarida bank kartalari orqali to‘lov qilish uchun POS-terminallar ishlab turganligi ma‘lum qilingan.²

Yaponiyada bunday blokavt vaziyatlari mamlakatda kuchli sunami va zilzila ro‘y bergan vaqtlarda kuzatilgan bo‘lib, bunga yechim sifatida keshless to‘lovlarida mobil ilovalar (masalan, Pay-Pay, Line-Pay, Rakuten-Pay) keng qo‘llanadi. Ularning qamrab olgan infrastrukturasi favqulodda holatlarda maxsus oflayn funksiyalar bilan to‘ldirilmoqda.

Masalan, Pay-Payda “Offline Payment Mode” funksiyasi 2023-yilda joriy etilgan. Shuningdek, fuqarolik ID — kartasiga asoslangan oflayn to‘lov amalga oshirishi mumkinligi yuzasidan choralar ko‘rilib, u 2023-yilda sinovdan o‘tkazilgan.³

O‘zbekistonda ham chakana savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida foydalanilayotgan onlayn nazorat kassa texnikalari to‘lovlarni offlayn rejimda qabul qilib, QR-kodli xarid cheki beradi. Ushbu qurilmaning quvvat(zaryad)i tugaguncha ishlash mexanizmi mavjud. Offlayn rejimda shakllangan ma‘lumotlarni (internet aloqasi yoki elektr ta‘minoti tiklangandan keyin) qonunchilikda 24 soat ichida soliq organi ma‘lumotlar bazasiga yuborishi shartligi belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron pulga o‘tish, avvalo, iqtisodiyotdagi hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish, to‘lov tizimlarining tezkorligini va shaffoqligini oshirishga xizmat qiladi. Bu orqali nafaqat banklar va to‘lov tashkilotlari faoliyati samaradorligi oshadi, balki aholi uchun moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish ham yengillashadi.

Elektron pullar joriy etish orqali iqtisodiy operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytirishga, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga, korrupsiya darajasini kamaytirishga hamda soliq tushumlarini oshirishga erishiladi. Shuningdek, elektron pul tizimi naqd pul aylanmasini qisqartirib, uning ishlab chiqarish, tashish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlarini keskin kamaytiradi.

Bundan tashqari, elektron pullar moliyaviy inklyuziyani (ya‘ni aholining bank va to‘lov xizmatlaridan keng foydalanish darajasini) oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu esa kichik biznes, tadbirkorlar va aholi uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

¹ U.S. Department of the Treasury

² <https://www.europeanpaymentscouncil.eu/news-insights/insight/payments-wartime-story-national-bank-ukraine>

³ <https://medium.com/tokyo-fintech/paypay-launches-offline-payment-functionality-2fa6a173155f>

Shu sababli, elektron pulga bosqichma — bosqich o‘tish mamlakat iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi, to‘lov tizimlari xavfsizligini ta’minlaydi va milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijasiga ko‘ra quyidagilar taklif etiladi:

1. O‘rganilgan xalqaro tajribadan kelib chiqib, naqd pul mablag‘larini ishlab chiqarish, saqlash, muomalaga kiritish va boshqa xarajatlarni kamaytirish maqsadida O‘zbekistonda ham elektron pullarni joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Aholining elektron pullarga o‘tish davridagi moliyaviy savodxonligini oshirish yuzasidan ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlar orqali, shuningdek mahalla yettiligini jalb qilgan holda jamoatchilik bilan keng miqyosda muloqot va tushuntirishlar o‘tkazish.

3. Sohalar kesimida bosqichma — bosqich to‘liq elektron to‘lovga o‘tish. Masalan: qurilish, chakana savdo, (alkogol va tamaki savdosi) mehmonxona va turizm sohalarini to‘liq naqdsiz to‘lovlarga o‘tkazish.

4. Tajriba loyihasi sifatida respublikaning bir hududini tanlagan holda to‘liq elektron to‘lov tizimini joriy qilish. Toshkent shahrida bugungi kunda internet tarmog‘i eng yaxshi rivojlangan hudud ekanligini inobatga olib, Toshkent shahrining bitta tumanini tanlagan holda ushbu hududdagi savdo va xizmat ko‘rsatish shahobchalarida to‘liq elektron pullar muomalasini joriy qilish.

Tajriba natijasidan kelib chiqib, respublikaning boshqa hududlarida ham elektron pullar(to‘lovlar)dan foydalanishni amaliyotga tatbiq etish.

5. QR-kodlar va mobil ilova orqali to‘lovlarni kengaytirish. Hozirgi kunda QR-kodlar orqali to‘lovlar juda ommalashmoqda. Bu fuqarolarga savdo nuqtalari va xizmat ko‘rsatuvchi sohalardan osonlik bilan to‘lov qilish imkonini beradi. QR-kodlar texnologiyasini ommaviy joriy etish va uning iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida qo‘llanilishini rag‘batlantirish, to‘lovlarni aniq va oson qilishga yordam beradi.

6. Elektron to‘lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Barcha to‘lovlarni mobil platforma va internet-banking orqali amalga oshirish uchun mukammal infratuzilma talab etiladi. O‘zbekistondagi banklar va moliyaviy xizmatlar integratsiyalangan platformaga ega bo‘lishi kerak, bu esa kredit kartalari, debet kartalari, mobil hamyonlar va QR-kodlarni birlashtirishga yordam beradi.

7. Keshbek va bonus tizimini joriy etish. Fuqarolar tomonidan elektron to‘lovlardan keng miqyosida foydalanishini rag‘batlantirish uchun keshbek va bonuslar tizimini amaliyotga kiritish kerak. Mikrobizneslar va chakana savdolar uchun shunga o‘xshash rag‘batlantirish vositalarini kiritish, to‘lovlarning raqamli usullariga o‘tishni tezlashtiradi va aholini elektron pullarga o‘tkazishga yordam beradi.

8. Elektron pullarning xavfsizligini ta’minlash. Elektron to‘lovlarning oson va xavfsiz bo‘lishi uchun, ularning xavfsizligini ta’minlash masalasi muhim. Kiberxavfsizlikni, kriptografiya va shifrlashni qo‘llash, o‘z navbatida anonimlik va maxfiylikni saqlashga yordam beradi. Bu jamoat ishonchini va elektron to‘lovlarga bo‘lgan talabni oshiradi.

9. Bank kartalarida saqlangan pullar uchun qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqib, maxsus foiz to'lovlari mexanizmini joriy qilish. Agarda kartadagi pullar bankomatlar orqali naqtalashtirilganda ushbu berilgan foizlar qaytarib olinishi lozim.

10. Elektron pullar joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish yuzasidan Soliq qo'mitasi tomonidan raqamli elektron platforma ishlab chiqilib, alohida nazorat o'rnatilishi lozim.

11. Blekaut (elektr ta'minoti, aloqa, internet tarmog'i uzilgan va boshqa favqulodda holatlarda) vaqtidagi xavflarni oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Jumladan,

- elektron pullar joriy etilganida ushbu mablag'ning 50 foizigacha bo'lgan qismini Markaziy bankda naqd pul ko'rinishida qoldiq (rezerv) sifatida shakllantirish;
- elektron pullardan doimiy foydalanish maqsadida zaxira serverlarni sotib olish, aloqa xizmati sifatiga alohida yondashish hamda ularni doimiy ishlashini ta'minlash;
- favqulodda vaziyatlar vaqtida aholi tomonidan doimiy iste'mol tovarlarni sotib olishi uchun tijorat banklari shu vaqtda qoldiq sifatida mavjud elektron pullarning 50 foizigacha bo'lgan qismini shakllantirilgan zaxira mablag'lar hisobidan naqd pullarga almashtirish choralarini ko'rish bo'yicha me'yorni qonunchilik bilan belgilash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabr O'RQ-578-son "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/4575786> .
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabr O'RQ-792-son "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/6213382> .
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3266-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "To'lov tizimlari operatorlari, elektron pullar tizimlari operatorlari va to'lov tashkilotlarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari".
4. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024 .pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024.pdf)
5. www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91ddff9e7c.en.pdf?utm
6. www.mdpi.com/2227-7390/9/20/2614?utm
7. www.journaleconomics.org/index.php/AJEFM
8. www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012_1~1d14637163.en.html?utm
9. www.bde.es/f/webbde/Secciones/Publicaciones/InformesBoletinesRevistas/InformesEstabilidadFinancera/21/1_Currencias_FSR41.pdf?utm
10. www.stlouisfed.org/publications/page-one-economics/2024/01/02/payment-systems-evolution-how-does-money-move-from-a-buyer-to-seller
11. www.federalreserve.gov/faqs/currency_12771.htm
12. www.bankrate.com/banking/checking/atm-withdrawal-limits/

13. www.interac.ca/en/company/about/our-history/
14. www.bankofcanada.ca/2021/02/payments-innovation-beyond-the-pandemic/
15. www.worldometers.info/gdp/nigeria-gdp/?utm
16. <https://www.marketingjournal.uz/post/marketing-jurnali-2025-yil-10-son>
17. <https://zenodo.org/records/17411926>
18. <https://www.mup.cz/data/files/IFRS2022-sbornik.pdf>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**